

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA AYOL RAHBARLARNING O'RNI VA ROLI

Rahimova Muxtasar

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xo'jabekova Mukarramxon

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda ayol rahbar tushunchasi va uning ijtimoiy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. Ayol rahbarlarning boshqaruv jarayonidagi roli, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlari, ijtimoiy mas'uliyati hamda jamiyat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, ayol rahbarlarning ko'p rolli faoliyati, duch kelayotgan muammolari va gender tengligini ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ayol rahbar, rahbarlik, zamonaviy jamiyat, gender tengligi, ijtimoiy mas'uliyat, boshqaruv.

Аннотация. В статье рассматривается понятие женщины-руководителя и её роль в современном обществе. Анализируются особенности управленческой деятельности женщин, их личностные и профессиональные качества, социальная ответственность и вклад в общественное развитие. Особое внимание уделяется проблемам гендерного равенства, многоролевой деятельности женщин-руководителей и социальнопсихологическим аспектам их лидерства.

Ключевые слова: женщина-руководитель, лидерство, современное общество, гендерное равенство, социальная ответственность, управление.

Annotation. This article examines the concept of women leadership and its role in modern society. It analyzes the managerial activities of women leaders, their personal and professional qualities, social responsibility, and contribution to social development. The study also highlights gender equality issues, the multiple roles of women leaders, and the social and psychological aspects of female leadership in contemporary society.

Keywords: women leaders, leadership, modern society, gender equality, social responsibility, management.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida rahbarlik tushunchasi tobora yangicha mazmun kasb etib bormoqda. Bugungi kunda rahbar faqat buyruq beruvchi emas, balki jamoani ilhomlantiruvchi, ijtimoiy mas'uliyatni his etuvchi va innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida qaralmoqda. Ana shunday sharoitda ayol rahbarlar jamiyat hayotining turli sohalarida muhim o'rin egallab, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shmoqda. Zamonaviy jamiyatda ayollarning rahbarlik lavozimlarida faol ishtiroki ijtimoiy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ayol rahbar tushunchasi nafaqat boshqaruv faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs sifatida, balki ijtimoiy, psixologik va madaniy jarayonlarda muhim rol o'ynovchi subyekt sifatida ham qaraladi. Ayol rahbarlar jamiyatda gender tengligi, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ayol rahbarlar fenomeni turli nuqtayi nazardan talqin etiladi. Sotsiologik yondashuvda ayol rahbar jamiyatdagi ijtimoiy rollar tizimida muhim o'rin egallovchi shaxs sifatida baholanadi. Psixologik yondashuv esa ayol rahbarning shaxsiy fazilatlari, emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi va muloqot madaniyatiga e'tibor

qaratadi. Ayol rahbarlar ko‘pincha bir vaqtning o‘zida bir nechta rollarni bajaradilar: rahbar, ona, turmush o‘rtog‘i va ijtimoiy faol shaxs. Ushbu rollarning uyg‘unlashuvi yoki ziddiyati ayol rahbarlar oilasida ijtimoiy-psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayol rahbar — bu boshqaruv salohiyatiga ega bo‘lgan, qaror qabul qilishda mustaqil, mas‘uliyatli va jamoadagi insoniy munosabatlarni muvozanatda ushlay oladigan ayoldir. Ayol rahbarlik faqat lavozim bilan emas, balki yetakchilik qobiliyati, muloqot madaniyati, empatiya va strategik fikrlash bilan belgilanadi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar boshqaruv jarayonida murosaga moyillik, sabr-toqat va jamoaviylikni ustun qo‘yadilar. Hozirgi kunda ayollar davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, tadbirkorlik, fan va texnologiya sohalarida faol rahbar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning ishtiroki jamiyatda gender tengligini ta‘minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va barqaror rivojlanishga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Ayol rahbarlar jamiyat muammolariga ko‘proq ijtimoiy yondashuv bilan qaraydi. Masalan, ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimida ayol rahbarlarning ko‘pligi ushbu sohalarida inson omiliga e‘tibor kuchayishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, ayollar boshqaruvida bo‘lgan tashkilotlarda jamoa ichidagi ishonch va o‘zaro hurmat darajasi yuqori bo‘lishi kuzatiladi. Ayol rahbarlikning asosiy afzalliklaridan biri — muloqotga ochiqlik va muammolarga kompleks yondashuvdir. Ayollar ko‘pincha qaror qabul qilishda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va axloqiy jihatlarni ham hisobga oladilar. Bu esa uzoq muddatli va barqaror natijalarga erishishga xizmat qiladi. Shuningdek, ayol rahbarlar yosh avlod, ayniqsa qizlar uchun ijobiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali jamiyatda “ayol faqatgina oila bilan cheklanishi kerak” degan eskicha qarashlar asta-sekin yo‘qolib, ayollarning o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishiga keng yo‘l ochiladi. Shunga qaramay, ayol rahbarlar hali-hanuz ayrim stereotiplar va ijtimoiy to‘siqlarga duch kelmoqda.

Ba‘zi jamiyatlarda ayollarning rahbarlik lavozimlariga ishonchsizlik bilan qarash, ularning qarorlarini yetarlicha jiddiy qabul qilmaslik holatlari uchraydi. Bundan tashqari, oila va ish o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi ham ayol rahbarlar uchun muhim sinovlardan biridir.

Agar Alloh taolo ayolni erkakning bekasi qilib qo‘yganida, uni boshidan, agar qul bo‘lganida, oyog‘idan yaratgan bo‘lar edi. Biroq, uni do‘st qilib erkakka teng qilib qo‘ygani uchun uni qovurg‘adan yaratdi. Avreli Avgustin

Tobora rivojlanib borayotgan bugungi jamiyatimizda xotin-qizlarning o‘rni, ularning haq-huquq hamda fikrlari qanchalik muhim. Nima deb o‘ylaysiz? Ayol ojiza, u uyda o‘tirishi kerak, bola tarbiya qilishi, turmush o‘rtog‘i, qaynona-qaynotasini ko‘nglini olishi, tinimsiz uy ishlari bilan band bo‘lishi kerak degan turli qarashlar bugungi hayotimizni qamrab olgani barchaga ma‘lum. Xo‘sh chindan ayol faqat shu ishlar bilan mashg‘ul bo‘lishi kerakmi? Agar javobingiz ha bo‘lsa, nima uchun unda biz bu xilqatni, “mo‘jiza” deb ataymiz. Nahot mo‘jizaga nisbatan bunchalik mas‘uliyatli vazifalari o‘z yelkasiga yuklab qo‘yishga uyalmasak. Fikrimizcha yoq. Ayol ham o‘qishi, zamonaviy bilimlarni egallashi, jamiyatda o‘zining mustaqil fikrini qo‘rqmasdan ayta olishi lozim. Islomda ayollarning ilm olishiga hech qanday ta‘qiq qo‘yilmagan. U o‘qishi, diniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashi kerak. Sababi, u kelajak avlodni dunyoga keltiradi, tarbiyalab voyaga yetkazadi.

Ko‘pgina tor fikrli kimsalar borki, ayol yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, uyda o‘tirishga mahkum degan notog‘ri aqidaga tayanib qolgan. To‘g‘i ayol uchun eng oliy o‘rinda oila turishi zarur. Chunki oila muqaddas. Biroq faqat uyda o‘tirsas, uy yumushlari bilan band bo‘lsa, u keyin

dunyoga keltirajak farzandiga qanday tarbiya beradi? O'zida hech qanday ilm yo'q bo'lsa. Keyin bizning qo'shtirnoq ichidagi aqlli erkaklarimiz nolishni boshlashadi. Hech narsani bilmaydi, aqli yetmaydi, tushunchasi yoq va hokazolar. Mana nima uchun u o'qishi, ilm olishi kerak. Kelajak avlodni munosib tarbiyalash uchun, o'z fikriga ega bo'lishi uchun. Aqlli ayol oilani ham, ilm olishni ham, ishlashni ham to'g'ri tartiblay hamda eplay oladi, agar turmush o'rtog'i ham aqlli bo'lsa. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq ishlashar ekan, xolbuki, biror tashkilotda ishlashmasalar ham.

Bir kunda ayollar o'rtacha 12 ming qadam bosishsa, erkaklar 9 ming qadam bosishar ekan. Bundan ko'rinadiki, ayollar ko'proq energiya sarflashadi. “Barcha so'zlar, bilimlar, hunarlar va san'atlar bu so'zdan lazzat oladilar. Usiz na ishda va na san'atda mazza bor. Ammo bundan g'oya ne? Bilmaydilar va bilish ham shart ham emas. Masalan, biror odam boy-badavlat, suruv-suruv ot-qo'ylarga, yer-suvlarga ega ayolga uylanmoq niyatida uning podasini boqib, yerini parvarish qilsa-da, zavqni ayolning borligidan oladi. Chunki ayolsiz u bularning barchasidan soviydi. Xuddi shunday, dunyoning butun hunarlari, ilmlari va hokazo hamma narsalari hayotni, zavqni hamda haroratni orifning nuridan oladilar. Zavqsiz ular uchun hamma yoq o'likka aylanadi”, - deydi Jaloliddin Rumiy[2:116]. Barchaga ma'lum, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida davlat boshqaruvida ayollarning o'rni va roli beqiyos. Xususan, Britaniya qirolligida, davlat rahbari necha yillarki qirolicha tomonidan boshqarib kelindi yoki Singapur davlatini olaylik. Singapur bugungi kunda sifatli ta'lim olib borish bo'yicha oliy o'rinlarda turibdi. Buni qarangki, davlat rahbari Halima Yoqub 2017-yildan beri Singapur prezidenti lavozimida ishlamoqda. Prezidentlikdan oldin 2013-2017-yillarda parlament spikeri lavozimida faoliyat yuritgan. Demak, Halima Yoqubning davlat rahbarligi lavozimiga kelishidan avval ham jamiyatda o'z o'rni bo'lgan. Bu kabi misollarni juda ko'p keltirib o'tishimiz mumkin. Biroq, yana ko'plab mamlakatlar borki, ayollarning jamiyatdagi o'rinlari adolatsizlik bilan toptalmoqda. Hindistonda ayollarning ta'lim olishi, davlat tashkilotlarida ishlashi uchun davlat tomonidan hech qanday e'tiroz mavjud emas, hattoki, o'qishni istagan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashadi. Ammo jamiyatda ayolning mavqeyi pastligicha qolmoqda. Buni hind ijodkorlarining ko'plab ijtimoiy film hamda kitoblaridan ham bilishi mumkin. Yaqin tarixga biroz nazar tashlaydigan bo'lsak, Hindistonda ayollarga qarshi 330998 jinoyat sodir etilgan bo'lib, ulardan 38947 tasini jinsiy zo'ravonlik tashkil etadi. Bundan tashqari, Hindiston dunyoda sog'lom ayollar yashovchi 152 mamlakat orasida 132 o'rinni egallaydi. Ushbu davlat aholining 48 foizini ayollar tashkil etadi. Ulardan atigi 12 foizi milliy qonun chiqaruvchi organlarda faoliyat olib boradilar. Ushbu ma'lumotlar orqali hind jamiyatidagi ayollarni o'rnini yaqqol ko'rishimiz mumkin. [1:476]. Shunga o'xshash vaziyatlardan yana biri Eron davlatida ham kuzatish mumkin. Shukrki, bizning mamlakatimizda xotin-qizlarning ta'lim olishi, davlat hamda xususiy tashkilotlarda ishlashlariga davlatimiz tomonidan hech qanday ta'qiq yoq. Ayollarning sifatli ta'lim olishi har tomonlama qo'llab quvvatlanadi. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin: 2021-yilda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tavsiyanomasi asosida 2 ming nafar ehtiyojmand oilalar qizlari qo'shimcha grant asosida talabalikka qabul qilindi.

2026-yilda xotin-qizlarga ajratiladigan grantlar 6mingtaga yetkazilishi reja qilingan. Tavsiyanoma quyidagi toifadagi xotin-qizlarga beriladi:

- kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlar;

- to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya'ni otasi yoki onasi yoxud ularning ikkalasi ham vafot etgan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar;
- turmush o'rtog'i vafot etgan, voyaga yetmagan farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar;
- nogironligi bo'lgan farzandi bor ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar;
- ikki va undan ortiq farzandlarini tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlaridan alohida (ijarada) yashayotgan ijtimoiy ayollar qiz farzandlari;
- ota-onalaridan biri yoki har ikkisi ham birinchi yoki ikkinchi guruh nogironi bo'lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar.

Bundan tashqari, “Zulfiyaxonim”, “Hamshira” ko'rik tanlovi g'oliblari davlat komissiyasi qarori bilan tegishli OTMLar mos yo'nalishiga tanlovdan tashqari kirish imtihonlarisiz qo'shimcha grant aosida qabul qilishadi. Shuningdek, xotin-qizlar ta'limiga oid eng oxirgi yangiliklardan ko'pchilikni suyuntirgani, shubhasiz, magistraturada o'qiydigan qizlar kontrakt pullari to'liq budjetdan qoplab berilishi bo'ldi. Endilikda xotin-qizlarimiz bemalol, magistratura bosqichida bepul ta'lim olishlari mumkin. Bu ham davlatimiz tomonidan xotinqizlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor namunalaridan biridir. Biroq guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek, bizning ham, jamiyatimizda ba'zi “ilmli kishilar” borki, ayollarga past nazar bilan qarashadi. Ayniqsa, bu holat olis va chekka hududlarda ko'proq kuzatiladi. Nima ham deymiz ularga insof bersin. Dinimizda ayol yuksak qadrlanadi, e'zozlanadi. Sababi ayollarimiz, 72 suyak sinishi og'rig'iga keng azob bilan, qiynalib, farzand dunyoga keltiradi. Uni tarbiyalab, voyaga yetkazadi. Bejiz 3 marotaba ham onaga, so'ng otaga yaxshilik qilish ta'kidlanmagan. Ko'pgina G'arb kishilari, Islom ayollariga erkinlik bermaydi, ularni jamiyatda o'rni past deya fikr yuritishar ekan. Fikrimizcha bu kabi noo'rin fikrlar yuritilishiga o'zimiz aybdormiz. Sababini esa, yuqoridagi tor doirali kishilar misolida keltirib o'tdik. Aslida unday emas, dinimiz ayollarning ilm olishlariga ta'qiq qo'ymagan. Hatto “Jannat onalar oyog'i ostidadir” iborasi ham mavjud. Demak ayollarni qadrlashimiz, ilm olishlariga to'sqinlik qilmasligimiz darkor.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. www.scientificprogress.uz
2. Qarang:Xolmo'minov Zokir o'g'li Mo'minmirzo, Malikaxon Qaxramon qizi Ashiraliyeva. Ayol rahbarlarning jamiyatda tutgan o'rni. Oriental Art and Culture jurnali. Qo'qon 2022. <https://scholar.google.com>
3. Xolmo'minov Zokir o'g'li Mo'minmirzo, Mardona Hamidjon Qizi Olimjonova. Jamiyat taraqqiyotida ayol rahbarlarning o'rni. Oriental Art and Culture jurnali. Qo'qon 2022. <https://scholar.google.com>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining ularga yuklangan vazifalarni bajarishda shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5230-son Qarori. 2021 yil 24 avgust. - www.lex.uz